

Maktab bitiruvchilarining fakultet bo'ylab sayohati

Joriy yilning 12 - mart kuni Toshkent viloyati Yuqorichirchiq tumani 36-o'rta ta'lim maktab bitiruvchi sinf o'quvchilari universitetimizga tashrif buyurishdi. Maktab bitiruvchilar orasida "yer tuzish va kadastr" sohasiga qiziquvchilar ham borligi sababli, ular "Yer resurslarini boshqarish" fakultetiga ham kelishdi. Mehmonlar "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti dekani Sh.Narbayev, yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshovalar kutib olishdi. Fakultet o'quv binosi, o'quv zallari, ma'ruza zallari, kompyuter xonalari, kafedralar ham tanishtirildi. Sayohat so'ngida fakultetning ma'ruzalar zalida universitet haqida videorolik namoyish etildi. Shuning yig'ilganlarga "Yerdan foydalanish" kafedrasida dotsenti A.Bobojonov, kafedrani katta o'qituvchisi Z.Hafizova, "Tuproqshunoslik va dehqonchilik" kafedrasida dotsenti O.Xaqberdiyevlar o'quvchilarni universitet faoliyati, ta'lim yo'nalishlari, talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirishdi.



Universitetimiz eshiklari har bir maktab bitiruvchilari uchun eshigi ochiq ekani, ular bilan kelajakda o'rnatilgan hamkorlik yuzasidan o'quvchilar uchun maxsus ochiq darslar tashkil etish, maktab o'qituvchilarini darslarni tashkil etish borasida uslubiy yordamlar berishga barchamiz tayyor deb ma'lumotlar berib o'tdi. O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan javoblar olishdi. Ushbu sayohatdan mamnunligi, ularga juda manzur bo'lganliklari bo'yicha fikrlar bildirishdi.



YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti